1. Strukturaviy geologiyaning o'rganish ob'ekti nimadan iborat?
2. Geologik struktura deganda nimani tushunasiz?
3. Geologik strukturalar qanday jarayonlar tufayli vujudga keladi?
4. Geologik xaritalash deganda nimani tushunasiz?
5. Geologik xaritalashning qanday ahamiyati bor?
6. Strukturaviy geologiya va geologik xaritalash kursi boshqa Yer haqidagi fanlar bilan qanday aloqadorlikka ega?
7. Strukturaviy geologiya va geologik xaritalash kursining dastlabki rivojlanishida A.R.Beruniy va A.A. ibn Sinoning qanday xizmatlari bor?
8. Geologik xaritalash ishlarining rivojlanishida qanday bosqichlarni ajratish mumkin?
9. O'rta Osiyoda birinchi marta kimlar geologik xaritalash ishlarini olib borgan?
10. O'zbekistonda rejali geologik xaritalash ishlari qachon boshlangan?
11. Geologik xarita nima?
12. Geologik xaritalar miqyosiga qarab qanday bo'linadi?
13. Geologik xaritalar vazifasi bo'yicha qanday bo'linadi? Ularda nimalar tasvirlangan bo'ladi?
14. Geologik xaritalarga nimalar ilova qilinadi?
15. Geologik xarita nomenklaturasi deganda nimani tushunasiz?
16. Stratigrafik ustun qanday elementlardan iborat bo'ladi?
17. Geologik kesma qanday elementlardan iborat bo'ladi?
18. Geologik kesmaning miqyosi geologik xarita miqyosiga to'g'ri kelishi shartmi? Nima uchun?
19. Shartli belgilar qanday guruhlarga bo'linadi va qaysi tartibda joylashtiriladi?
20. Stratigrafik shkala qanday tabaqalardan iborat?
21. Mahalliy va mintaqaviy shkalalar qanday tabaqalardan iborat?
22. Aerokosmosuratlar qanday xillarga bo'linadi?
23. Aerokosmosuratlarning asosiy talqin qilish belgilari nimalardan iborat?
24. Aerokosmosuratlarda stratigrafik komplekslar qanday xususiyatlariga ko'ra talqin qilinadi?
25. Aerokosmosuratlarda tektonik strukturalar qanday talqin qilinadi?
26. Aerokosmosuratlarda magmatik tanalarni talqin qilish xususiyatlarini aytib bering?
27. Aerokosmosuratlarning geologik xaritalashda qanday ahamiyati bor?
28. Geofizik anomaliyalar tabiati nimalardan iborat?
29. Strukturaviy geofizika usullari nimalarga asoslangan?
30. Magnit anomaliya intensivligi nimalarga bog'liq?
31. Gadograf nima?
32. Elektrorazvedka qanday usullarni o'z ichiga oladi va ular nimalarga asoslangan?
33. Karotaj nima va uning qanday turlari ajratiladi?
34. Tektonik harakat turlari qanday ajratiladi?
35. Tog' jinslarining fizik xususiyatlari deganda nimalarni tushunasiz?
36. Deformatsiya nima va uning qanday turlari ajratiladi?

37. Qatlam deb nimaga aytiladi?
38. Qatlamlanish qanday sodir bo'ladi?
39. Qatlama nima?
40. Qatlamlarda qanday elementlar ajratiladi?
41. Qatlam qalinligi nimalarga bog'liq?
42. Ritmiylik nima va u qanday vujudga keladi?
43. Birinchi fatsial zonallik qonunining mohiyatini tushuntirib bering.
44. Ikkinchi fatsial zonallik qonuni ta'riflab bering.
45. Uchinchi fatsial zonallik qonunining mohiyati nimadan iborat.
46. Stratigrafik gorizontlar petrografik gorizontlardan nimasi bilan farq qiladi?
47. Tog' jinslarining strukturasi deganda nimalar tushuniladi?
48. Teksturalar qanday genetik turlarga bo'linadi?
49. Ryab belgilarini o'rganishning qanday ahamiyati bor?
50. Cho'kindi tog' jinslari qanday tamoyillarga asosan tasniflanadi?
51. Bo'lakli jinslar qanday tamoyillarga asosan tasniflanadi?
52. Tog' jinslarini ta'riflashda ularning qaysi xususiyatlariga asosiy e'tibor beriladi?
53. Litologik-stratigrafik kesmalarni ta'riflashda nimalarga e'tibor beriladi?
54. Geologik kontaktlar qanday genetik turlarga ajratiladi?
55. Stratigrafik kontakt deb nimaga aytiladi?
56. Parallel va burchakli nomuvofiqliklar qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?
57. Qoplab yotish va yondoshib yotish qanday sharoitlarda vujudga keladi?
58. Issiq magmatik kontakt qanday hosil bo'ladi?
59. Sovuq magmatik kontakt qanday ajratiladi?
60. Kontaktbo'yi o'zgarishlarini o'rganishning qanday nazariy va amaliy ahamiyati bor?
61. Gorizontal yotish deganda nimani tushunasiz?
62. Gorizontal yotgan qatlamlarning qalinligi qanday aniqlanadi?
63. Gorizontal yotgan qatlamlar bo'yicha kesmalar tuzish hususiyatlari nimalardan iborat?
64. Gorizontal yotgan qatlamlar xaritada qanday aniqlanadi?
65. Gorizontal yotgan qatlamlar aerofotosuratlarda qanday ifodalangan bo'ladi?
66. Qatlamlarning qiya yotishi qanday vujudga keladi?
67. Qatlamlarda qanday yotish elementlari ajratiladi?
68. Asosiy yotish elementlari nimalardan iborat?
69. Qanday hollarda faqat qatlamlarning yo'nalish azimutlari o'lchanadi?
70. Qanday holda qatlamlarning yotish elementlari o'lchanmaydi?
71. Yotish azimutining ta'rifini bering.
72. Yotish burchagining ta'rifini bering.
73. Tog' kompasining tuzilishini gapirib bering.
74. Geografik meridian bilan magnit meridiani orasidagi burchak qanday burchak va uning kattaligi nimaga bog'liq?
75. Geologik xaritalarda qatlamlarning yotish elementlari qanday usullar bilan aniqlanadi?
76. Uch nuqta usulini tushuntirib bering.

77. Burg'i quduqlari yordamida qatlamlarning yotish elementlarini aniqlash usulini tushuntirib bering.
78. Shurflar yordamida qatlamlarning yotish elementlari qanday aniqlanadi?
79. Qatlam qadami nima va uning kattaligi nimalarga bog'iq?
80. Qatlam uchburchaklari nima va ularning qanday amaliy ahamiyati bor?
81. Leontovskiy formulalarini keltirib chiqaring.
82. Geologik xaritalarda qatlamlarning haqiqiy qalinligi qanday usullar yordamida aniqlanadi?
83. Aerofotosuratlarda qatlamlarning yotish elementlarini va qalinligini aniqlashda qanday hususiyatlardan foydalaniladi?
84. Tik yotgan ob'ektlar geologik xaritalarda qanday tasvirlanadi?
85. Burma deb nimaga aytiladi?
86. Burmalarda qanday elementlar ajratiladi?
87. Burma o'q chizig'i bilan sharniri orasida qanday munosabat bor?
88. Burma undulyatsiyasi nima?
89. Burmalar qanday hususiyatlari bo'yicha tasniflanadi?
90. Fleksuralar oddiy burmalardan nimasi bilan farq qiladi?
91. Burmalarning qanday murakkab shakllarini bilasiz?
92. Platformalarda burmali strukturalar qanday nomlanadi?
93. Antiklinoriylar va sinklinoriylar qanaqa strukturalar?
94. Burmalar genetik tomondan qanday tasniflanadi?
95. Geologik xaritalarda burmali strukturalar qanday tasvirlanadi?
96. Aerofotosuratlarda geologik strukturalar qanday talqin qilinadi?
97. Uzilmali strukturalar qanday hosil bo'ladi?
98. Uzilmali strukturalar qandan tasniflanadi?
99. Darzliklar qanday genetik turlarga bo'linadi?
100. Tektonik darzliklar qanday kuchlar ta'sirida hosil bo'ladi?
101. Darzliklarni o'rganish qanday nazariy va amaliy ahamiyatga ega?
102. Darzliklarning gul-diagrammasi nimani ifodalaydi?
103. Surilmali yer yoriqlari qanday morfologik turlardan iborat?
104. Surilmali yer yoriqlarida qanday elementlar ajratiladi?
105. Surilmali yer yoriqlari qanday kuchlar ta'sirida hosil bo'ladi?
106. Uzilmali va aks uzilma strukturalar bir-biridan qanday farqlanadi?
107. Siljima strukturalarning o'ng tomonlama yoki chap tomonlama ekanligini qanday aniqlasa bo'ladi?
108. Ustsurilma va shar'yajlar bir-biridan qanday farq qiladi?
109. Shar'yajlarda qanday elementlar ajratiladi?
110. Surilmali yer yoriqlarining qanday aralash (gibrid) turlari ajratiladi? Ular bir-biridan qanday farqlanadi?
111. Surilmali yer yoriqlarining qanday murakkab turlari mavjud?
112. Qanday surilish amplitudalari ajratiladi?
113. Surilish amplitudalari qanday usullar bo'yicha aniqlanadi?
114. Geologik xaritalarda surilmali yer yoriqlarining turlari qanday aniqlanadi?
115. Aerokosmosuratlarda surilmali yer yoriqlari qanday belgilari bo'yicha talqin qilinadi?